



MAROKASHNING IQTISODIY - IJTIMOYIY TARAQQIYOTI VA UNING ISTIQBOLLARI

Meliqo'ziyeva Fotimaxon

O'zbekiston davlat Jahon tillari universitetining

Tarjimonlik fakulteti 3-bosqich talabasi

Marokash Qirolligi- Afrika qit'asining shimoliy-g'arbiy qismida joylashgan hayratlanarli mamlakat. Poytaxti- Rabot shahri . Aholisi va maydoni bo'yicha mamlakatimiz bilan o'xshashlik tomonlari mavjud. Afrikaning issiq quyoshi ostida turli o'lkalarga eng shirin mandarinlar va apelsinlarni yetkazib beradigan Marokashning iqtisodiy-ijtimoiy holati bugungi kunda qay darajada? Bu mamlakat bilan bizning davlatimiz o'rtasida qanday manfaatlar bo'lishi mumkin?

Eng avvalo, Marokashning o'ziga xos va e'tiborni jalb qiluvchi jihatlarini ta'kidlab o'tsak:

➤ Marokash Qirolligining yerida turib bir vaqtning o'zida ham Afrika , ham arab olamida bo'lish mumkin. Bunga sabab, Marokashni Ispaniyadan atiga 16 km li Gibraltar bo'gozi ajratib turadi. Marokashlik qirg'oqda turib, qo'shni Ispaniya yo'llari bo'ylab harakatlanuvchi mashinalarni bemalol turib tamosha qilish imkoniyatini beradi

➤ Dunyodagi eng qadimgi universitetlardan biri- AL-Karauin Marokashning Fec shahrida joylashgan va 859- yildan boshlab ilm toliblarini qabul qila boshlagan. Ta'lim maskaning asoschisi Fatima al- Fixri hisoblanadi.

➤ Ajablanarlisi shundaki, Marokash - issiq mamlakatlardan biri, shu bilan birga qishki sport turlari : chang'i, snoubord va boshqasport turlarini shakllantirishga imkon yaratuvchi katta hududdagi qorni uchratish mumkin. Qorli qatlam bu yerlarda dekabr dan aprelgacha turadi. Sayohatchilar shu sababli orom olish uchun bu yerga yilning turli fasllarida tashrif buyuradilar.

➤ Marokashliklar shahar binolarining ranglanishiga e'tibor qaratadi, ayniqsa, ular moviy rangni xush ko'radi. Hattoki, moviy rangga burkangan bir shahar ham mavjud.

➤ Marokash tabiati shunchalik ajablanarli va takrorlanmaski, bu jihati bilan u o'ziga yuzlab kinomatografchilarni jalb etib kelgan . Misol tariqasida , "Gladiator", "007:Spektr" va "Taxtlar o'yini" dagi voqealar suratga olingan.

Tarixiga nazar tashlasak, bu hududlarda qadimgi sahroviiy qabilalardan biri berberlar istiqomat qilgan. Mamlakat tarixida VI asrning o'rtalarida Rim imperiyasi



, salbchilar, Vizantiya hukmronligi, Arab xalifaligi va inglizlar hukmronligi ostida bo'lgan.

Marokash - agrar industrial mamlakat bo'lib , unda sanoat, qishloq xo'jaligi va konchilik birmuncha rivojlangan. Iqtisodiyotda fermer xo'jaliklari va rivojlangan zamonaviy korxonalar bilan bir qatorda mayda tovar dehqon xo'jaliklari va hunarmandchilik katta o'rin tutadi. Mustaqillik yillarida mamlakat iqtisodiyotida zamonaviy tarmoqlarni rivojlantirish , hududiy va infratuzilmalarni tartibga solish siyosatini olib bordi.

Qishloq xo'jaligida mehnatga layoqatli aholining 44,6 % ishlaydi, u yalpi ichki mahsulotnin 17,1% ini ta'minlaydi. Eksportda qishloq xo'jaligi mahsulotlarining ulushi 25% ni tashkil etadi. Bu sohada ob - havo hal qiluvchi omil hisoblanib , foyda va zararlar ob - havoning ta'siri tufayli vujudga kelishi mumkin. Don, dukkaklilar va qand lavlagi ekin maydonlarinin 80 % ni egallaydi . Shu qatorda, baliqchilik ham rivojlangan.

Sanoatda mehnatga layoqatli aholining 19,8% ishlaydi, u yalpi ichki mahsulotning 31.6% ini beradi. Yalpi ichki mahsulot tog'-kon sanoatining ulushi 3% ni tashkil etadi. Marokashning asosiy boyligi fosforlar bo'lib, ularni ishlab chiqarish bo'yicha mamlakat dunyoda 3-o'rinni { AQSH va Rossiyadan keyin } va ularni eksport qilish bo'yicha 1- o'rinni { jahon eksportining 30% } egallaydi. Bundan tashqari qo'rg'oshin, marganes, mis ,kobalt, rux, qazib olinadi. Temir rudasi zaxiralari ham mavjud.

Mamlakatning rivojiga hissa qo'shayotgan daromad manbalaridan yana biri bu-turizmdir. Rim, arab , ispan, turk va fransuz madaniyati ta'sirida ko'plab me'moriy osori-antiqalar yordam bergan turizm muhim valyuta tushumi manbai hisoblanadi. O'rta asr shaharlari to'g'ri burchakli minoralar va kuchli darvozalari bo'lgan shaharchalar va qal'alardan iborat bo'lib, uning ichida oqlangan uylar, hovlilarda favvoralar, shovqin- suronli tor ko'chalar mavjud. Bozor shovqini o'zgacha bir dunyoga yo'l ochadi. 2007- yilda turrizmdan olingan daromad 7.55 milliard dollarni tashkil etgan . 2010- yilda yangi dasturga binoan mamlakatga 10 million sayyoh tashrif buyurishi va bu sohadagi daromad YaIM ning 20% ni tashkil qilishi kerak. Bu dasturdan asosiy maqsad esa 600 ming yangi ish o'rni yaratish bo'lgan.

Marokash iqtisodiyotida jahon iqtisodiyotiga keng ochilishi bilan tavsiflanadi. Marokash iqtisodiyoti Afrika qit'asidagi va YaIM bo'yicha beshinchi yirik iqtisodiyotdir. Jahon iqtisodiy forumi 2014-2015 yillardagi o'z hisbotida Marokash Shimoliy Afrikadagi birinchi raqobatdosh iqtisodiyot sifatida ko'rsatdi. 2017- yil holatiga ko'ra , Marokash Misrdan keyingi neft savdosi bo'lmagan yalpi ichki



mahsuloti bo'yicha ikkinchi o'rinni egallaydi. Marokash iqtisodiyotida asosiy o'rinlarni egallab turgan turizm, fosfat minerallari va qishloq xo'jaligi, shuningdek, baliq va dengiz mahsulotlarini sotish ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Bugungi davrda, Marokash shaharlar va qishloqlar o'rtasidagi ijtimoiy va mintaqaviy ayrim hududlardagi ayrim noroziliklar kuzatilmoqda. Ikki yil davom etgan qurg'oqchilik qashshoqlik darajasining ortishiga sabab bo'lmoqda. Ayniqsa, yoshlar o'rtasidagi ishsizlik, xotin-qizlarning mehnat bozoridagi ishtirokining pastligi mamlakatning siyosiy-iqtisodiy holatiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Bularni tartibga solish vaqtida pandemiyaning butun dunyoga keltirgan zararlari Marokashni ham chetlab o'tmadi. Bu vaziyatda Marokash tez va qat'iy choralarini ko'rdi va jahon bozorlardagi doimiy o'zgarishlar sharoitida ijtimoiy-iqtisodiy holatni, shu qatorda aholi sog'lig'ini saqlash choralarini ko'rdi. 2021-yil holatiga nazar tashlasak, Marokash Afrikadagi rivojlangan va sarmoyaviy yo'nalishlar orasida ikkinchi o'rinni egalladi. Bunga sabab, mamlakatning Yevropa mamlakatlariga yaqinligi va jozibadorligi tashqi investorlarni jalb qila olganligidir. Marokash qiroli Muhammad VI bu holatga javoban: "Inqiroz oqibatlariga qaramay mamlakatimiz va iqtisodiyotimiz jonlanishiga ishonch o'zgarishsiz qoldi" - dedi. Qulay iqtisodiy infratuzilma Marokashga valyuta zaxiralari ega bo'lish imkonini berdi. "Bularning barchasi umid beruvchi istiqbollarni bo'lib, bu nafaqat fuqarolar va oilalar ortasidagi ishonchni, balki xo'jalik subyektlari va investorlarni o'rtasida tadbirkorlik ruhini ham oshiradi", - deya ta'kidladi qiroli Muhammad VI.

O'zbekiston Respublikasi va Arab mamlakatlari o'rtasida ikki tomonlama hamkorlikni yanada rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha tadbirlar olib borilgan. Xususan, 1993-yil ikki mamlakat o'rtasida diplomatik munosabatlar o'rnatilgan. O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri o'rinbosari Elyor G'aniyev 2019-yil 3-7 aprel kunlari Islom taraqqiyot banki guruhi Boshqaruvchilik Kengashi 44-yig'ilishida ishtirok uchun Marokashda bo'ldi. Marokash Qirolligi bilan bizning mamlakatimiz o'rtasida savdo-iqtisodiy va ilmiy-texnikaviy, turizm, investitsiyalarni rag'batlantirish bo'yicha hamkorlik qilishimiz imkoniyatlari mavjud.

Xulosa qilib aytganda, so'ngi yillarda hukumat xalqaro sayyohlikni yanada rivojlantirish yuzasidan zamonaviy infratuzilmani yaratmoqda. Ishlab chiqaruvchilar, xizmat ko'rsatish, transport, sitrus va tropik mevalarni yanada ko'proq yetishtirish, dengiz suvini ichimlik suviga aylantirish singari muhim strategik vazifalar mamlakat iqtisodiyotining istiqbollari belgilaydi. Tabiiyki, bunday tub o'zgarishlar aholining farovonligi darajasiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.